

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI tomonidan Futbol va qishki sport turlari fakulteti
talabalari bilan **Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning
mazmun-mohiyati va ahamiyatini talaba - yoshlarga yetkazishni tashkil etish
bo‘yicha “YANGI O‘ZBEKISTON – YANGICHA DUNYOQARASH”**
mavzusida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir
BAYONNOMASI

Chirchiq shahri

27.11.2020

O‘tkazilgan joy: Universitetning faollar zali.

Qatnashdilar: O‘zDJTSU Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor **Sh.S.Mirzanov**, Futbol va qishki sport o‘yinlar fakulteti dekani **D.K.Ismagilov**, Futbol va qishki sport o‘yinlar fakulteti dekani o‘rinbosarlari **A.Shermuhammedov**, **B.Akromov**, “O‘zbek tili va adabiyoti ” kafedrasi mudiri **N.N.G‘afforov**, kafedra professor-o‘qituvchilari va universitetning futbol va qishki sport turlari fakulteti talabalari

KUN TARTIBI


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini talaba - yoshlarga yetkazishni tashkil etish bo‘yicha “YANGI O‘ZBEKISTON – YANGICHA DUNYOQARASH” mavzusida o‘tkazilgan tadbir haqida





Bugun O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası, Futbol va qishki sport turlari fakulteti talabalari bilan **Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini talaba - yoshlarga yetkazishni tashkil etish bo‘yicha “YANGI O‘ZBEKISTON–YANGICHA DUNYOQARASH”** mavzusida targ‘ibot dasturi doirasida **ma’naviy-ma’rifiy** tadbir o‘tkazildi.

Eshitildi:tadbirni Futbol va qishki sport o‘yinlar fakulteti dekani D.Ismagilov ochib berdi. -U o‘z nutqida “Sog‘lom turmush tarzini hayotga tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi farmoni mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, sportning ommaviyligini ta‘minlash, iqtidorli yoshlarni sportga yo‘naltirish,



malakali mutaxassislarni tayyorlash, har bir sport turining moddiy texnik bazasini mustahkamlashda dasturil amal bo'lib xizmat qilishini kabi fikrlarni ma'lum qildi va bugungi tadbir aynan Respublikamizdagi yangilanish jarayonlari haqida ekanligini ma'lum qildi.

- **So'zga chiqdi: Futbol va qishki sport turlari fakulteti dekani o'rinbosari A.Shermuhammedov** davom ettirdi.- Bu yil yer yuzi aholisi, jumladan mamlakatimizda yashayotgan har bir oila, har birimiz uchun haqiqiy ma'noda sinov yili bo'ldi. Chunki Covid-19 deb atalmish pandemiya, ko'rinmas yov tufayli, hali tarixda, yaqin yuz yil ichida bo'lmagan murakkab favqulodda sharoitni boshdan kechiryapmiz, hali ham bu jarayon davom etayotgani, shunday og'ir, kutilmagan sharoitda xalqimiz o'zini yo'qotib qo'ymay, aksincha bir tanu bir jon bo'lgani, bu harakatlarga mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev o'zi boshqosh bo'lib, mamlakat fuqarolarini birlashtirib, bir maqsad sari jipslashtirganini ta'kidladi.



O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida juda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgani, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida **“Milliy tiklanishdan – milliy taraqqiyot sari”** g'oyasi asosida izchillik bilan amalga oshiralyotgan tub islohotlar tufayli Yangi O'zbekiston barpo etilayotganini aytib, O'zbekiston hududida bir sutka davomida **o'n ming va undan ortiq** qadam yutgan 18 va undan yuqori yoshdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarosining platformadagi elektron hamyoniga **3 ming so'mdan;** Har bir oyda tuman (shahar) bo'yicha eng ko'p yurgan shaxsga **300 ming so'mdan,** har bir hudud bo'yicha eng ko'p yurgan shaxsga **500 ming so'm,** respublika bo'yicha eng ko'p yurgan shaxsga **1 million so'm** qo'shimcha ravishda platformadagi elektron hamyoniga o'tkazilishi, **Farmonga muvofiq 2022 yildan**

boshlab Nukus, Buxoro, Nurafshon, Samarqand, Termiz, Xiva, Shahrisabz va Qo‘qon shaharlarida hamda 2023 yildan boshlab respublikaning barcha yirik shaharlarida piyoda va vilosipedda yurish uchun **“Salomatlik yo‘laklari”** tashkil etiladi. **2021 yil 1 yanvardan barcha davlat organlari va tashkilotlarida ish kuni davomida ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlari.** Sog‘lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida mehnat jamoalarida faoliyat yuritayotgan xodimga **“Sport targ‘ibotchisi”** qo‘shimcha vazifasi yuklanib, uning bazaviy lavozim maoshiga 20 foiz miqdorida ustama belgilanishini va bu haqda batafsil ma‘lumotlar berish uchun so‘zni **“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası mudiri N.N.G‘afforovga berdi.**



- **So‘zga chiqdi:** N.N.G‘afforov - Haqiqatan ham, oxirgi to‘rt yil ichida mamlakatimizda juda katta o‘zgarishdar bo‘ldi. Xalq va virtual qabulxonalari, Prezident portali, shaxsiy saytlari ishga tushdi. Odamlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukumatga, Prezident portaliga murojaat qila boshladi. Ularning muammolari o‘rganilib, tezda hal qilinishiga e‘tibor qaratildi. Bugungi kungacha 4,5 millionga yaqin murojaat bo‘lgan. Hududlarda sayyor qabullar tashkil etilib, hukumat vakillari, mansabdor shaxslar joylarga chiqib aholi bilan uchrashib, kerak bo‘lsa uyma-uy yurib aholi muammolarini hal etish yo‘lga qo‘yildi. Bunda “xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilish kerak” degan tamoyil asosiy mezon qilib belgilandi. Hududlarni rivojlantirish, aholini tashvishga solayotgan masalalarni hal qilish, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik, oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligini nazorat qilish bo‘yicha ham



qator ishlar qilindi va bu jarayonlar hali ham davom etmoqda. Ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlarni alohida ta'kidlashni istar edim. Oxirgi ikki yilda 77 ta yangi maktab qurildi. OTMga qabul qilish 16% oshdi, qizlar uchun alohida grant o'rinlariga 4% foiz ajratildi. Hozirda 80 ortiq ixtisoslashgan maktablar, 126 OTM faoliyat olib boryapti. Shulardan 24 tasi xorijiy ta'lim muassasalari hisoblanadi. **Ish vaqtidan so'ng** tanlangan kunlarda (haftada kamida bir marta) **rahbar va barcha xodimlarning** jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari (yugurish, futbol, badminton, voleybol, basketbol, stol tennisi, suzish va boshqalar) bilan shug'ullanishi ta'minlanadi. **Har shanba soat 14.00 dan keyin xodimlar va ularning oila a'zolari o'rtasida** yugurish, futbol, badminton, voleybol, basketbol, stol tennisi, suzish va boshqa sport turlari bo'yicha **ommaviy sport musobaqalari** tashkil etilib, musobaqalar bayramona ruhda, "shou" ko'rinishida o'tkaziladi.

Mamlakatda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar ichida qambag'allikka qarshi kurash harakatlarini alohida qayd etgan bo'lardim. Bu bo'yicha maxsus vazirlik tashkil etildi. Hozir hukumat alohida dastur asosida ish olib bormoqda. **Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan "Yangi O'zbekiston, yangicha dunyoqarash" mavzusida Taqdimot tayyorlangan.**Shu taqdimot bilan tanishtirish uchun so'zni kafedra dosenti I.Boltayevaga beramiz.

So'zga chiqdi: dosent I.Boltayeva - Ahamiyatli jihat shundaki, hozir mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlikka katta yo'l ochildi. Masalan, hozir 130 mingga yaqin tadbirkorlik ishlarini ayollar boshqaryapti. Bu ishlarga davlatdan 52 milliard so'm ajratilgan. Yoshlarga esa 700 milliard so'mlik kreditlar ajratilgan. O'zbekiston avval xorijga paxtadan boshqa mahsulot

eksport qilmagan. Bu yil shu davrgacha O‘zbekiston dunyoning **62** ta davlatiga **698** million dollarlik, ya’ni **1 mln 100 ming** tonna meva-sabzavot eksport qilgan. Shu bilan birga mamlakat bozorlarini o‘zimizning mahsulotlar bilan to‘ldirish, oziq-ovqat xavfsizligi hamda narxlar barqarorligini ta‘minlash maqsadida hududlarda jamg‘armalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. **Tashqi siyosatda** ham qator ishlar amalga oshirildi. Bu haqda gap ketganda, albatta qo‘shni respublikalar bilan do‘stona munosabatlarning yo‘lga qo‘yilganini alohida ta’kilashni istar edim. **Jahon hamjamiyatda O‘zbekistondek davlatning siyosiy obro‘yi oshganini** shu yili Prezidentimizning BMT 75 sessiyasi minbaridan turib o‘zbekcha ma’ruza qilganligi va bir qator dolzarb masalalarni o‘rtaga tashlagani misolida ham ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, O‘zbekiston birinchi marta inson huquqlari bo‘yicha tashkilotga a‘zo bo‘ldi. **(Taqdimot matni to‘liq ilova etiladi)**



- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020 yil 3 noyabr kuni **“Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4877-sonli** farmonni imzoladi. Unga muvofiq O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport **universitetining Farg‘ona filiali**, sportchilarning texnik-taktik, psixofiziologik holatini o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha maxsus ilmiy laboratoriyasi negizida **O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti** tashkil etildi.



Joriy yilning 20 oktyabrida **“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** gi PF-6084-sonli farmoni qabul qilindi O‘zbekiston Jismoniy tarbiyava sport universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi, O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi vakillari ishtirokida tashkil etilgan mazkur tadbir qatnashchilar xotirasida o‘zgacha muhrlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 oktyabr kuni buyuk shoir va mutafakkir **Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini** keng nishonlash to‘g‘risida qarori qabul qilinishi muhim qaror ekanligini aytib o‘tdi/

Yig‘ilish so‘ngida kafedra mudiri N.G‘afforov yana bir bor yakuniy so‘zga chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi yil 21 oktyabrdagi PF-5850- sonli farmoni**, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 dekabrdagi **“O‘zbek tilining davlat tili sifatida qo‘llanilishini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha 2019-2020 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar Dasturi”** iga muvofiq Universitetda 2020-2021 o‘quv yilidan **“O‘zbek tili va adabiyoti”** kafedrasi faoliyatini boshlagani, bunday keyin talabalarimizda o‘zbek tili bo‘yicha qanday fikr-mulohaza va savollari bo‘lsa bemalol unga murojaat qilishlari mumkinligini ta’kidladi.

Tadbirda Jahonga mashhur o‘zbek sporti ustalarining **“Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash”** haqidagi fikrlari yozib olingan video rolik hamda **Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasining BMT ning 75 yig‘ilishida 8 ta tilda ijr**



Спорт 2-ролик БОКС.mp4



O'ZBEKISTON qasidasi.mp4

etilgan

namoyish etildi. Videorolik va musiqiy tarona talabalar tomonidan juda katta qiziqish va hayajon bilan tamosho qilindi.

QAROR QILINDI:

1. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini talaba - yoshlarga yetkazishni tashkil etish bo'yicha "YANGI O'ZBEKISTON – YANGICHA DUNYOQARASH" mavzusida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirning yuqori saviyada o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Targ'ibot-tashviqot tadbirlari keng ko'lamda davom ettirilsin.

Kafedra mudiri

N.N.G'afforov

MIBM

I.T.Boltayeva